

HARBIY MASHG'ULOTLARDA TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH TEXNOLOGIYALARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

XAMROYEV KAMOL QAXRAMONOVICH

Buxoro davlat pedagogika instituti

Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Kalit so'zlar: harbiy mashg'ulot, vatanparvarlik, innovatsion faoliyat, texnologiya, o'qitish, ta'lim, inovatsiya, pedagogika, psixologiya, tarbiya, ijtimoiy

XXI asr globallashuv, taraqqiyot asri, faqat intellektual jihatdan yuksak rivojlangan davlatlarga dunyoda ustuvor mavqe egallaydigan davr bo'lishi barchamiz uchun ayon. Mana shu yo'lda Yangi O'zbekiston davlati taqdirini o'z qo'lga olib, yangi hayot, jamiyat qurishga, kelajagini jahon xamjamiyatining uzviy bir qismi sifatida tashkil etishga kirishdi. Zaxmatkash xalqimiz o'zining fidoiy mehnati bilan dunyoda xech kimdan kam bo'lmay, taraqqiy topgan mamlakatlar qatoridan o'rin olib, tinch, farovon va osuda hayot kechirishga xaqlidir. Lekin bu yo'l juda murakkab yo'l bo'lib, u jamiyat a'zolaridan fidoyilik, vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ulari ustuvor bo'lishini talab qiladi. Buning uchun jamiyat hayotining ertangi kunini yaratadigan yoshlarda xuddi mana shu tuyg'ularni shakllantirish zarur. Mana shunday mashaqqatli va sharaflil kurashlarda, buyuk intilishlarni amalga oshirishda, el-yurt uchun o'zini ayamadan xizmat qilishda, kerak bo'lsa, jonini fido etishda yosh avlod doimo o'rnak va ibrat bo'lib kelgan»¹. Shunday ekan, bugungi yosh avlodni vatanparvar, tashabbuskor, fidoyi inson sifatida tarbiyalash muhim vazifaga aylandi. Busiz barkamol insonni, uning shaxsiyatini to'g'ri shakllantirib bo'lmaydi. Chunki Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini rivojlantirmay, hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi»². Demak, barkamol insonsiz chinakam xalq manfaatiga xizmat qiladigan jamiyatni barpo qilib bo'lmaydi. Bu borada so'z san'ati bo'lgan adabiyotning o'рни juda kattadir. Chinakam vatanparvar, barkamol insonni shakllantirishda ta'lim-tarbiya jarayoni imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ta'lim jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi o'quv

¹ O'zbekiston ovozi. 2001y.26.04.49-son.1-bet

² I.Karimov.O'zb.XXI asr bo'sag'asida.T.,»O'zbekiston»,1997y.137-bet

fanlari - adabiyot, ona tili, iqtisod, xuquq, tarix darslari bilan bir qatorda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi darslarida beriladigan o'quv materiallari mazmunida talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladigan o'quv materiallari miqdorini muntazam ko'paytirish, sinfdan tashqari harbiy vatanparvarlik tarbiya mashg'ulotlarida ushbu tuyg'uni jadal tarkib toptirishga yo'naltirilgan tadbirlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari pedagog olimlar - V.N.Vernadskiy, I.B.Gindlin, I.P.Dayndri, N.V.Ivanov, D.V.Katsyuba, I.P.Milanov, A.F.Rodin, A.I.Strajev va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan bu soxadagi nazariy-pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish natijasida o'talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish uchun mavjud tarixiy tajribalarni o'rganish, umumlashtirish, ularda o'tmish tarixiy tajribasini mintaqaviy-maxalliy tajriba bilan aloqadorligini ta'minlashga oid aniq ilmiy tavsiyalar mavjud emasligi xam namoyon bo'ldi. Bu hol adabiyot, tarix, iqtisod, ona tili va xuquq darslarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish maqsadining ustuvor bo'lishini taqozo qilmoqda. O'talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning maqsad va vositalari uyg'unligini ta'minlash bu o'rinda muhim ahamiyatga ega. O'talabalarda ularning istak va ehtiyojlari doirasida bilim berish jarayonida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Shaxs va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'quvchi shaxsida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish muammosining yechimiga harbiy vatanparvarlik tarbiya darslari va darsdan tashqari sport tadbirlari orqali erishish maqsadidan kelib chiqqan holda malakaviy ishimizni amalga oshirishga kirishdik.

Vatan (arabcha «vatan» — ona yurt) kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, xududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati³. Vatan insonning ruhiyati, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, o'tmishi, buguni va kelajagi mujassam bo'lgan tushunchadir.

Vatan ostonadan, o'zi tug'ilib o'sgan go'shadan boshlanadi. Shuning uchun bola o'zi yashab, nafas olib turgan xonadonida ulg'ayib voyaga yetishishida muxtasham va qudratli makon bo'lgan ona zaminiga mexr-muhabbat va sadoqati abadiy bo'lmog'i zarur. Har bir insonning vataniga bo'lgan muhabbati ona suti, ona allasi va ota-onasining mexri bilan uning vujudiga singib boradi, ota-onasini avlod-ajdodlari, ularning an'analari, urf-odatlarini, kasb-korlarini sevuvchi farzand o'zgarini xam sevadi. Millati, xalqi, adabiyoti, san'ati, dini va madaniyatidan g'ururlanib, o'zi o'sgan yurt tabiatidan ilxomlanib, uning muqaddas tuprog'i qadrini anglaydi. Zero, hech bir inson

³ Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. T., Sharq, 1998-bet

Vatandan tashqarida baxt-saodat topa olmaydi. O'z yurtida obru-e'tibori bo'lmagan inson o'zga yurtida xam qadrlanmaydi. Shuning uchun xam xalqimizda «O'zga yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtingda cho'pon bo'l», «o'zga yurtida shox bo'lgandan, o'z yurtingda gado bo'lgan afzal», «O'lsang o'l, vataningda bo'l!» kabi naqlar bejiz aytilmagan.

Har kimning o'z xonadoni, uy-joyi, o'z ona yurti naqadar qadr-qimmatli ekanligini o'zga yurtga safarga, yashashga borgan inson biladi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Furqat va boshqa bobokalonlarimizning o'zlari tug'ilib o'sgan vatanlaridan uzoqda kuchli Vatan sog'inchi-bilan yashaganlari, ona yurt tuprog'ini, unda o'sgan mevalarni ko'zlariga to'tiyo qilganlari, yurt ishqida iztirob chekkanlari barchaga ayon. Ularning ruhiy kechinmalari xaqiqiy vatanparvar kishining holatidir. Xaqiqiy vatanparvar u qaerda yashamasin, Vatanning yaxshi kunida xam, yomon kunida xam uni tark etmaydi, u bilan birga bo'ladi⁴. Insondagi eng oliy tuyg'u — Vatan tuyg'usidir. O'zi tugilib-o'sgan ona yurtini jon qadar sevadigan, o'zga yurt tabiatidan o'z yurti tabiatichalik zavq ola olmaydigan, diyoridagi katta-kichik yutuqlardan faxrlanadigan, xatto mitti chumoli harakatidan zavqlanadigan butun aql-zakovati, qalb qo'ri, kuch va imkoniyatini shu jamiyat va tabiat go'zalligi, rivojiga baxshida eta olgan insondagina bu tuyg'u namoyon bo'ladi.

Vatan xam, vatanga muhabbat to'yg'usi xam iloxiy ne'mat bo'lib, butun qon tomirlarida shu tuyg'u jo'sh urgan insonda vatanfurushlik, vatanga xiyonatdek jirkanch vaxeshilikka moyillik xech qachon bo'lmaydi. Xalqimizda «O'zga yurtning bag'lariyu-bog'chasi, o'z yurtingning yontog'icha ko'rinmas»_ deb bejiz aytilmagan.⁵

Vatan tuyg'usi — bu Vatanni himoya qilib, Vatan deya fido bo'lgan Tumaris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Solixbek dodxox, mulla Aliqul dodxox singari yuzlab sher yuraklarni eslashdir. Tomirida oxirgi tomchi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan Jaloliddin Manguberdi, Temir Malik, Abdumalik To'ra, Qurbonjon dodxox, Madaminbek, Namozbotir singari buysunmas baxodirlarning, og'ir kunlarda qardoshlarga yelkadosh bo'lay deb, harbiy vazirlik lavozimidan iste'foga chiqib, ota yurti Turkistonga kelib, ayovsiz janglarda xalok bo'lgan Anvar poshshoning, dullikdan o'limni afzal bilgan Oqmasjid, Chimkent, Avliyoota, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Zirabuloq himoyachilarining nomini yodga olishdir.

Vatan tuyg'usi — bu mustamlaka tuzumiga qarshi bosh ko'targan Toshkent, Jizzax, Andijon qo'zg'olonchilari, Dukchi Eshon xotirasini unutmaslikdir.

⁴ Ibrohimov A. va boshqalar. Vatan tuyg'usi. Toshkent, 1997, 152-bet.

⁵ Ibrohimov A. va boshqalar. Vatan tuyg'usi. Toshkent, 1997, 154-bet

Vatan tuyg`usi — bu zulm-istibdoddan qutulish uchun xalqni ma`rifatli bo`lishga chorlash, milliy uyg`onishga da`vat etgan, najot ilmda, birlikda va harakatda deb bilgan fidoyi ziyolilarni, ularning raxnamolari bo`lmish Munavvar Qori, Maxmudxo`ja Bexbudiy, Abdullaxo`ja, Avloniy, Fitratlarning nomlarini doimo yodda saqlashdir.

Insonni dunyoga keltirishdek mo`jiza yaratgan ona bilan Vatan hamoxangdir. Vatan ona kabi inson taqdirida mo`jizalar makonidir. Shuning uchun ikki mo`jizakor yonma-yon Ona-Vatan deb yuritiladi. Inson ona uchun qanchalik jonfidolik qilsa, Vatan uchun xam shunchalik qayg`uradi, uni ardoqlaydi, sevadi, avaylab-asraydi, turli ofatlardan, dushmanlardan qo`riqlaydi. Kerak bo`lsa, Ona-Vatan uchun jonini qurbon kiladi. Munis va mo`tabar Ona insonni shu yorug` dunyoga keltirsa, Vatan uni hayot belonchagida o`stiradi, ulg`aytiradi, shaxsni shaxs sifatida namoyon etadi. Shu boisdan inson uchun Ona - Vatandan ulug`roq, mo`tabarroq, qimmatliroq makon yo`q. Xalq ichida Ona deganda - Vatan, Vatan deganda esa Ona tasavvur etilishida xam majoziy mano bor. Ba`zi bir sabablarga ko`ra, o`zga yurtlarda yashayotgan vatandoshlarimiz xam «Ona-yurtim», «Ota-yurtim», «Kindik qonim to`kilgan yurt» deb faxrlanadilar⁶.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevori. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma`ruza // Xalq so`zi, 2017 yil 8 dekabr. №247 (6941).
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi //Xalq so`zi, 2017 yil 23 dekabr. №258 (6952)
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Parlamentga Murojaatnomasi //Xalq so`zi, 2018 yil 30 dekabr. №318 (8942)
4. Ватан туйғуси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 439.
5. Ватан ҳимояси – муқаддас бурч / Тузувчилар: Иноятов И.Ю., Абилов М.Ҳ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.
6. Военный энциклопедический словарь. – М.: Эксмо-Пресс, 2007. 1024 с.
7. Жўраев Н. Халқаро терроризм ва минтақавий можаролар. – Тошкент: Маънавият, 2001.

⁶ Yuqoridagi manba. 157-bet.